

JADIDLARNING MILLIY MA'NAVIY QARASHLARI VA UNING O'LKA HAYOTIGA TA'SIRI

Rashidova Farida Fatullaevna

Navoiy shahar politexnikumi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya – Ushbu maqolada jadidlarning milliy ma'naviyatga, adabiyotga qo'shgan hissasi, ilgari surgan g'oyalari, ular yaratgan ta'lim-tarbiya mezonlari va ularning O'rta Osiyo xalqlari hayotiga ta'siri haqida so'z yuritilgan. Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar – jadid, adabiyot, g'oya, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, "Behbudiya", "Turon", Ibratxona, "Munozora".

Abstract – This article discusses the Jadids' contribution to national spirituality and literature, the ideas they advanced, the educational principles they developed, and their influence on the lives of the peoples of Central Asia. It also highlights how the Jadids sought ways to renew and elevate society through national unity and spiritual-educational reforms.

Keywords – jadid, enlightenment, morality, enlightenment, jadid, national revival, press, autonomy, national idea, "Behbudiya", "Turan", Temple, "Discussion".

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat sifatida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hududlarida jadidchilik harakati kirib keldi. Tarixiy adabiyotlardan ma'lumki, ushbu harakat XIX asrning 80-yillarida ilk bor vujudga kelgan. O'rta Osiyo hududiga esa XIX asrning 90-yillarida kirib kelgan. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyasi madaniy jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, avvalo jamiyat ijtimoiy hayotining taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy xalqlar adabiy yo'nalishini shakllantirish va uni zamon talabi asosida boyitish, turkiy tillar rivojini oshirish, jamiyatda ayolllar manfaatlarini himoya qilish, ayollar va erkaklar huquqlarini tenglashtirish va o'z o'rnida ilm-fan rivojini taraqqiy ettirish masalalariga qaratilgan edi.

Maxmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir singari ma‘rifatparvar bobolarimiz millatni dunyodagi rivojlangan xalqlar darajasida ko‘rish orzusi bilan yashab ijod etgan ma‘rifatparvarlar edilar. Jadidchilar o‘zlari yashagan davrning yosh avlodlari uchun ta‘lim va tarbiya masalalari faqat orzu bo‘lganligini, yashab turgan jamiyatlarida bu orzuni amalga oshirish mashaqqatlar evaziga kelishini va bu jihatlar faqatgina millatning ma‘rifatli, madaniyatli bo‘lishi evaziga kelishini tushunib yetganlar. Ular faoliyatlarini oddiy ma‘rifatchilik va tor doiradagi madaniylashtirish ishlardan boshladilar va oqibatda bu harakat kuchli siyosiy kuchga aylanib, o‘z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo‘ydilar. Jadidlar milliy davlatchilik tuzmi tarafdori bo‘lib uni qurishga urindilar, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdilar va bu bilan milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldilar. Tarixiy adabiyotlardan ma‘lumki, jadidchilik harakatida orqaga chekinish kuzatilmaydi. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, jadidlar o‘z faoliyatlari davomida jamiyat va uni boshqarishni yangidan qurish vazifasiga asosiy masalasi sifatida qaradilar. Ular yagona mustaqil Turkiston uchun kurash olib borib, milliy mustaqillik g‘oyasining asoschilari bo‘lib tarixda qoldilar. Xalqni zulmatdan uyg‘onishga, mustamlaka zulmidan ozod bo‘lib, toptalgan qadriyatlarni, milliy g‘ururni, ajdodlardan qolgan boy ma‘naviy merosni qayta tiklashga undadilar. Jadidlar o‘z ta‘limoti orqali jamiyat ziyolilarini, ilg‘or fikrda bo‘lgan yosh avlodni, taraqqiyparvar shaxslarni o‘z orqasidan ergashtirdi. Ular Turkiston miiliy mustaqilligi uchun kurash olib borar ekan, o‘z faoliyatida ustuvor yo‘nalishlarni belgilab oldi. Bular quyidagilar:

1. Xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish;
2. Turkistonda milliy demokratik davlat qurish;
3. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
4. Qobiliyatli yoshlarni horijga o‘qishga yuborish;
5. Ma‘rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish;
6. O‘z faoliyati va g‘oyasi doirasida gazeta va jurnallar chop qilish.

Jadidlar ma‘naviyatni shakllantirishdagi muhim omil mamlakat yoshlarining ta‘lim-tarbiya tizimi ekanligini anglagan holda faoliyat olib borganligi haqiqatdir. Ular sharqona ta‘lim-tarbiya bir-biriga hamohanglikda olib borilsa, samaraga

erishish muqarrarligini xalqqa yetkazishga intildilar. Bu g'oyani jadidlarning yetuk vakili, o'z davrining bilimdon ziyolisi Abdulla Avloniyning: "Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur"¹ yoki "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"², degan fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Turkiston jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lgan buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi, publitsist, dramaturg va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy samarqandlik ruhoniylar oilasida tug'ilgan bo'lib, o'zi ham qozi, muftiy darajasigacha ko'tarilgan va jadidlarning savodxonlik, zamonaviy maktablar va matbuotni rivojlantirish kabi g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan shaxs edi. Uning asosiy maqsadi xalqni, ayniqsa o'zbek va turk tilli xalqlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va ma'rifatparvarlik yo'lida birlashtirish edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan so'zlari shunday xulosalarni keltirib chiqaradiki, haqiqatdan ham milliy davlatchilikni tuzish va uning barhayot bo'lishi uchun, millat ravnaqi uchun dunyoviy fan va ilmning ahamiyati bugungi kunda nechog'li ahamiyatga ega ekanligini davr ko'rsatmoqda. Bu fikrimizni birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Chindan ham agarki xozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan ham qadam bo'lib yurmasak, buning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi"³.

Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jaev, Usmon Nosir va yana juda ko'plab jadidchilar millat ma'rifatini, ma'naviyatini rivojlantirish uchun katta hissa qo'shganligiga guvohmiz. Jadidchilik harakatining faoliyati maktab va maorif bilan bog'liq bo'lib, ular matbuot, san'at va siyosatga ham alohida e'tibor qaratishgan. Rossiya va uning mustamlakalarida jadidchilik harakatiga Ismoilbek Gasprinskiy asos soldi. U Boqchasaroyda dastlabki "usuli jadid" (yangi usul) maktabini 1884-yilda ochadi.

¹ Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. "Yoshlar" nashriyot uyi, Toshkent, 2018 yil. 28-bet.

² O'sha asar.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent, 2008-yil. 65-bet.

Gaspirinskiyning o'lkada ziyolilariga bergan ta'siri haqida Munavvarqori Abdurashidxonov 1927-yilda Toshkent okrug maorif xodimlari qurultoyida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Jadid maktabi tashkil qilg'onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarni yetishtirgan kishilar edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoil Gaspirinskiy gazetasini o'qiydilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edilar"⁴. Shunday qilib, o'lkada yangi maktablar ochishga Ismoil Gaspirinskiy va tatar ziyolilari, muallimlarining ibrati va yordami katta bo'ldi.

Jadidchilik umumilliy harakat sifatida jamiyat hayotiga kirib kelgan edi. Jadidchilar faoliyati:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;
2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqardi;
3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Ularning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko'rgan "Turkiston muxtoriyati" bu yo'ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham, bu xududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga xam o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari ham maorifni isloh etishni, amir va xon xukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishda ko'rinadi.

1. Yangi usul maktablarini ochish, ko'paytirish orqali.
2. Turli ma'rifiy jamiyatlar ochish orqali.
3. Umidli iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish orqali.

Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabini ochgan Ismoil Gaspirinskiy Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga o'lkada musulmon maktablarini ham isloh qilishga doir loyihasini yuboradi. Rad javobini olgach, 1893-yil Turkistonga o'zi keladi va Buxoro, Samarqand, Toshkentda bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga

⁴ Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927-yil, 7-iyun.

ko'ndiradi. Bu maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi. Shunday qilib, jadidlar tomonidan yangi maktablarga ochish, maktablar uchun darsliklar yaratish jarayoni boshlandi. Shundan keyin o'lkada yangi maktablar ochilishi avj oldi. Maxmudxo'ja Behbudiyning tashabbusi bilan Samarqanda yangi usul maktablari ochildi. O'rta Osiyo jadidchilik harakatining yo'l boshchisi Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda 1901 yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturlarini tuzgan. Uning "Adibi avval" (1907), "Adib us-soniy" (1907), "Usuli hisob", "Tarixi qavm turk", "Tajvid" (1911), "Havoyiji diniya", "Tarixi anbiyo", "Tarixi islomiya" (1912), "Yer yuzi" (1916-1917), to'rt qismdan iborat "O'zbekcha til saboqlari" (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) darsliklari shular jumlasidandir. Ammo, jadidchilik harakati namoyondalari bu bilan cheklanib qolmasdan, keng xalq ommasi uchun kutubxonalar ham barpo etganlar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudi 1908-yilda "Behbudiya" kutubxonasi nomi bilan mashhur bo'lgan qiroatxonani tashkil etib, uni aholi uchun qulaylik yaratish maqsadida ikki xil vaqtda, ertalab soat 9.00. dan 17.00. gacha va kechki soat 18.00. dan tungi 24.00. gacha ishlab, 60 dan 110 nafargacha bo'lgan kishilarga madaniy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yadi⁵. 1910 yilda yana bir kutubxona Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligidagi jadidlar tashabbusi bilan "Turon" kutubxonasi yuzaga keladi. Bugungi mustaqil O'zbekistonda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimiz yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ilgari surilgan besh tashabbusning uchinchi ham kitobxonlikni keng targ'ib qilishga bag'ishlangan. Bu esa jadid bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan mavzu hamon dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Xullas, jadidlar moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Shu bois ham o'lkada millatni ma'rifatli qilish maqsadida olib borilgan ishlar tahsinga sazovor.

⁵ Behbudi B. "Behbudi kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914 yil 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild II.-T.: Akademiya nashri, -2018-yil. 14-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent, 2008-yil.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent, 2018-yil.
3. Avloniy A. “Tarjimai hol. Tanlangan asarlar. 2-jild.T., “Ma'naviyat”, 1998-yil. 288-bet.
4. Мунавварқори А. “Қизил Ўзбекистон” 1927-йил. 7-июнь.
5. Qosimov B. “Milliy uyg'onish”, T.,”Sharq”, 2004-yil. 53-bet.
6. Behbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “Oyina” jurnali, 1914-yil. 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr. 2018-yil. 14-bet.
7. Behbudiy B. “Ikki emas, to'rt til lozim”, “Oyina” jurnali, 1913-yil. 10 avgust, №1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T.: Akademnashr. 2018-yil. 396-bet.